

O‘ZBEK ESTRADA XONANDALARINING IJODIDA MILLIYLIK VA GLOBAL MUSIQIY YO‘NALISHLAR UYG‘UNLIGI

Nurullayev Farrux Gaybulloyevich

*O‘zbekiston Kompozitorlari va Bastakorlari uyushmasi a‘zosi, musiqashunos olim,
Buxoro davlat pedagogika instituti (PhD) professori*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston estrada san’atining shakllanishi va taraqqiyotida milliylik va zamonaviylikning o‘zaro uyg‘unligi, xususan estrada xonandalarining ijodida milliy kuylar va xalq musiqasi unsurlarining global musiqiy tendensiyalar bilan sintez qilinishi yoritiladi. Globalizatsiya jarayonida estradamizning o‘ziga xos yo‘nalishini saqlab qolishdagi madaniy strategiyalar, xorijiy uslublardan foydalangan holda milliy ohanglarni targ‘ib qilish masalalari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *estrada san’ati, milliylik, globalizatsiya, musiqiy uyg‘unlik, madaniy identitet, xalq kuychiligi, zamonaviy janrlar.*

Musiqqa san’ati insoniyat tarixida madaniy merosni avloddan avlodga yetkazishda eng kuchli vositalardan biri bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa estrada san’ati bugungi global axborot maydonida tez tarqaladigan, ommaviy ta’sir kuchiga ega bo‘lgan janrlardan biridir. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlar, xalq ijodi va san’atga bo‘lgan yondashuvda tub burilish yuz berdi. Estrada yo‘nalishidagi ijodkorlar milliylik va zamonaviylik uyg‘unligiga asoslangan musiqiy qidiruvlarga kirishdilar.

O‘zbek estradasida ijod qilayotgan xonandalar uchun milliy musiqiy ildizlarga asoslanish nafaqat ijodiy yo‘nalish, balki madaniy mas’uliyatdir. Xalq kuylaridan ilhomlangan, maqom ohanglariga suyanan, mumtoz adabiyotga asoslangan qo‘shiqlar orqali estrada ijodkorlari tomoshabinga nafaqat estetik zavq, balki tarixiy va madaniy ong beradi. O‘zbek estradasining ilg‘or namoyandalari — Yulduz Usmonova, Ozodbek Nazarbekov, Sevara Nazarxon, Munisa Rizayeva kabi xonandalar o‘z repertuarlarida xalq kuylarining zamonaviy talqinini yaratgan holda milliylikni asrab qolishga intildilar.

Global musiqiy uslublar ta’siri

Zamonaviy estrada musiqasiga xorijiy yo‘nalishlar — pop, R&B, jazz, elektron musiqalar, hip-hop, reggaeton kabi janrlar kuchli kirib kelmoqda. Bu holat O‘zbekiston estrada xonandalarining musiqiy shakllanishida ham sezilarli darajada namoyon bo‘ldi. Masalan, Sherzod Ergashev, Shahzoda, Nilufar Usmonova kabi san’atkorlar G‘arbiy musiqiy uslublardan foydalangan holda o‘zbekcha matnlar va ohanglar orqali zamonaviy estrada maktabini shakllantirdilar. Shuningdek, yangi avlod vakillari — Ziyoda, Ummon guruhi, Erkaboy, Izzat Shou, Malika Raisova kabi xonandalar ham zamonaviy musiqiy tendensiyalarni milliy ruhi bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilmoqda.

Musiqqa va madaniy identitet uyg‘unligi.

Estrada san’atida milliy va global elementlarning uyg‘unlashuvi nafaqat musiqa sifatini, balki xalqning madaniy identitetini saqlab qolish masalasida ham muhim o‘rin tutadi. Har qanday san’at turi milliy madaniyatning aksidir. Agar musiqiy mahsulot faqat xorijiy andozalarga asoslanadigan bo‘lsa, bu holda xalqning musiqiy ta’biga mos tushmaydi. Shuning uchun O‘zbekiston estrada san’atida milliy cholg‘ular — doira, dutor, tanbur, nay, g‘ijjak kabi asboblarning ishtirokida yaratilgan zamonaviy kuylar omma orasida e’tibor qozonmoqda. Bu esa milliy musiqaning zamonaviy talqinida qayta tiklanishiga xizmat qilmoqda.

Ijodiy sintez: muvaffaqiyatli tajribalar.

Ko‘plab estrada xonandalari milliy kuylarni remiks qilish, xalq ohanglarini pop musiqaga moslashtirish, maqomlardan g‘oyalar olish orqali yangilik yaratishmoqda. Masalan, Sevara Nazarxonning maqom asosidagi elektro-folk eksperimentlari xalqaro miqyosda ham tan olingan. Yulduz Usmonovning folklor asosidagi estrada ijodi esa millionlab tinglovchilarni o‘ziga jalb qilgan. Ushbu holatlar shuni ko‘rsatadiki, global janrlarni faqat ko‘chirmachilik emas, balki ijodiy yondashuv bilan uyg‘unlashtirish milliy san’at rivojining asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

XULOSA

O‘zbekiston estrada san’ati milliylikni saqlagan holda global musiqiy yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashuv yo‘lidan bormoqda. Bu uyg‘unlik xonandalarning ijodiy izlanishlari, milliy qadriyatlarga bo‘lgan sadoqat va zamonaviy tendensiyalarni o‘zlashtirish darajasi bilan belgilanadi. Har bir san’atkor xalq madaniyatining targ‘ibotchisi sifatida nafaqat ovoz, balki milliy ruh, estetik g‘oya va ijtimoiy mas’uliyatni o‘z ijodiga singdirishi zarur. Faqat ana shunday yondashuv orqali o‘zbek estradasi global sahnada o‘z ovozi yo‘qotmasdan, aksincha, yanada kuchliroq eshitila oladi.

ADABIYOTLAR:

1. Umarov M - Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi. -T., 2009
2. Гуревич Е. История зарубежной музыки. 2-е изд. - М., 2000.
3. История зарубежной музыки. Вып. 1-6. - М., - СПб., 1986-2001. I т.-535 с., II т.- 277 с., III т.- 533 с., IV т.- 529 с., V т.- 448 с.
4. Karomatov F.M. O'zbek xalq musika merosi. XX asr. 1-kitob. T., 1978,1982
5. O'zbek musiqa tarixi. T.,1981.